

## Sirdaryo viloyati umumiy o'rta ta'lim

2024/2025 o'quv yili boshiga


- I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
- II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari
- IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)
- V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari

Sirdaryo viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **341 tani** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **29 taga**, ya'ni **9,3 % ga** oshgan.


#### Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



#### Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2024/2025 o'quv yili boshiga respublikada jami **12 ta** nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **12,0 barobarga** ko'paygan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari  
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Umumta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat umumta'lim tashkilotlari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>341</b>	<b>12</b>
Guliston sh	34	10
Shirin sh	5	
Yangiyer sh	14	2
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	19	
Boyovut	57	
Sayxunobod	42	
Guliston	35	
Sardoba	22	
Mirzaobod	36	
Sirdaryo	45	
Xovos	32	

2024/2025 o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Boyovut (**57ta**), Sirdaryo (**45 ta**) va Sayxunobod (**42 ta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Oqoltin tumani (**19 ta**), Yangiyer shahar (**15 ta**) va Shirin shahrida (**5 ta**) qayd etilgan.


Nodavlat umumta'lim tashkilotlariga kelsak, ularning ko'p qismi Guliston shahar (**10 ta**), eng kami esa Yangiyer shaharda (**2 ta**) qayd etilgan.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni](#)

## II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Sirdaryo viloyatida 2020/2021 – 2024/2025 o'quv yillarida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o'quvchilarning umumiy soni **7,8 ming kishiga**, ya'ni **4,9 % ga** ko'paygan.



Ushbu davrda qiz bolalar soni **4,4 ming nafarga**, ya'ni **5,8 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **3,4 ming nafarga**, ya'ni **4,2 % ga** oshgan.

### O'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi (2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'quvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>164,6</b>	<b>79,9</b>	<b>84,7</b>	<b>48,5</b>	<b>51,5</b>
Guliston sh	26,0	12,1	13,9	46,5	53,5
Shirin sh	3,7	1,8	1,9	48,6	51,4
Yangiyer sh	8,9	4,3	4,6	48,3	51,7
<i>tumanlar:</i>					
Oqoltin	9,3	4,5	4,8	48,4	51,6
Boyovut	22,2	11,1	11,1	50,0	50,0
Sayxunobod	14,1	6,9	7,2	48,9	51,1
Guliston	13,9	6,7	7,2	48,2	51,8
Sardoba	11,3	5,5	5,8	48,7	51,3
Mirzaobod	15,4	7,5	7,9	48,7	51,3
Sirdaryo	22,7	11	11,7	48,5	51,5
Xovos	17,1	8,5	8,6	49,7	50,3

Viloyatimizning barcha tuman va shaharlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan o'rtacha **3,0 % ga** ortadi. O'quvchilarning eng ko'p qismi Guliston shahar (**26,0 ming**), Sirdaryo (**22,7 ming**) va Boyovut (**22,2 ming**) tumanlarida qayd etilgan, eng kami esa Yangiyer shahar (**8,9 ming**) va Shirin shahar (**3,7 ming**) to'g'ri kelgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng sezilarli tafovut Guliston shahrida bo'lgan (o'g'il bolalar – **53,5 %**, qiz bolalar – **46,5 %**), boshqa hududlarda o'g'il va qiz bolalar nisbati taxminan bir xil.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[O'quvchilar soni \(jami\)](#)


[O'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)

[O'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

### III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari

2024-yilda O'zbekiston Respublikasidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX sinf bitiruvchilari soni **520,1 ming kishini** tashkil etgan va 2020-yilga nisbatan ularning soni **36,6 ming kishiga**, ya'ni **7,6 % ga** ko'paygan. XI sinf bitiruvchilari soni esa, aksincha, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan **48,4 ming kishiga**, ya'ni **10,7 % ga** kamaygan va **405,9 ming kishini** tashkil etgan.

IX va XI sinf bitiruvchilari soni  
(tegishli yil uchun, ming kishi)



IX sinf bitiruvchilari soni XI sinf bitiruvchilariga nisbatan ko'pligi ba'zi o'quvchilar IX sinfni tugatgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar maktablarida o'z o'qishlarini davom ettirayotganini anglatadi.

IX va XI sinf bitiruvchilari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	IX sinf bitiruvchilari	XI sinf bitiruvchilari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>12.6</b>	<b>10.2</b>
Guliston sh	2.4	1.9
Shirin sh	0.3	0.5
Yangiyer sh	0.7	0.5
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	0.7	0.5
Boyovut	1.6	1.4
Sayxunobod	0.9	0.9
Guliston	1.1	0.9
Sardoba	0.7	0.7
Mirzaobod	1.2	1.0
Sirdaryo	1.8	1.2
Xovos	1.3	1.1

IX sinf bitiruvchilarining eng ko'p qismi Guliston shahar (**2,4 ming**) va Sirdaryo (**1,8 ming**) tumanlarida, eng kami esa Yangiyer (**0,7 ming**) va Shirin (**16,9 ming**) shaharlarida qayd etilgan. XI sinf bitiruvchilari orasida ham Guliston shahar (**1,9 ming**) va Sirdaryo (**44,1 ming**) tumani yetakchilik qilmoqda, Shirin (**0,5 ming**) va Yangiyer (**0,5 ming**) shaharlarida esa bu ko'rsatkich eng past darajada bo'lgan.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[IX sinf bitiruvchilari](#)

[XI sinf bitiruvchilari](#)

**IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)**

2024/2025 o'quv yili boshiga Sirdaryo viloyatining umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni **14,0 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **12,7 ming kishiga**, ya'ni **11,1 % ga** ko'paygan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni  
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Sirdaryo viloyatida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi o'qituvchilarning asosiy qismini ayollar tashkil etgan – **93,6 % (13,1 ming kishi)**, erkaklar esa **6,4 % ni (0,9 ming kishi)** tashkil etgan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>14,0</b>	<b>13,1</b>	<b>0,9</b>	<b>93,6</b>	<b>6,4</b>
Guliston sh	2,0	1,9	0,1	95,5	5,0
Shirin sh	0,3	0,3	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh	0,6	0,6	0,0	0,0	0,0
<i>tumanlar:</i>					
Oqoltin	0,8	0,7	0,1	87,5	12,5
Boyovut	2,0	1,9	0,1	95,5	5,0
Sayxunobod	1,5	1,4	0,1	93,3	6,7
Guliston	1,3	1,2	0,1	92,3	7,7
Sardoba	0,9	0,8	0,1	88,9	11,1
Mirzaobod	1,4	1,3	0,1	92,9	7,1
Sirdaryo	1,9	1,8	0,1	94,7	5,3
Xovos	1,3	1,2	0,1	92,3	7,7

Eng yuqori ayol o'qituvchilar ulushi Guliston shaharga to'g'ri kelgan (**95,5%**), Sardoba tumanida esa bu ko'rsatkich nisbatan pastroq bo'lgan (**88,9 %**). O'qituvchilarning eng katta qismi Guliston shahar (**2,0 ming kishi**) va Boyovut (**2,0 ming kishi**) tumanida qayd etilgan. Boshqa

tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Shirin (**0,3 ming kishi**) hamda Yangiyer (**0,6 ming kishi**) shaharlariga to'g'ri kelgan.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Chislennost uchiteley \(vsego\)](#)

## V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobot – **1-umumta'lim shakli** "Umumta'lim muassasasining hisoboti" asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari, boshqa vazirlik va idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Umumta'lim muassasasining statistik hisobotida o'quvchilar, bitiruvchilar, o'qituvchilar soni hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

O'quvchilar va o'qituvchilar soni, umumta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlar yangi o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil uchun keltiriladi. Yig'ma ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ta'lim islohotlarini rejalashtirish, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida va boshqa xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

**Foydali havolalar:**  
[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)  
[MSKO 2011](#)  
[MSKO-0 2013](#)

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

**Manzil:** Manzil: 120100, Guliston,  
Birlashgan ko'chasi, 62-uy Pochta:  
info@sirstat.uz Tel.: 67-236-70-00  
Ichki: 21-00

